

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.A.Mamajonov

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xuquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro muloqot madaniyati 545

B.A.Pulatov

Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lif-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari 548

K.I.Marayimova

Bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari 552

N.M.O'rinova, G.I.Tillabayeva

Talabalarning mustaqil ta'lif olish kompetentiligini rivojlantirish usullari 557

D.I.Asqarova

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish omillari 561

M.Q.Jabborova, Sh.D.Raxmatjonov

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni psixologik, intellektual va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ilk davrning o'ziga xos xususiyatlari 569

M.Q.Jabborova

Maktabgacha ta'lif yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamонавиғи sifatiga erishish omillari 572

FALSAFA**A.A.Qambarov**

"Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda diniy qadriyatlar omilining innovatsion xususiyatlari 579

I.M.Arzimatova

Boshqaruv kadrlari faoliyatida ma'naviyatning o'mi 583

D.E.Normatova

Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati 588

I.A.Asatulloev

Karl Yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari m'a'naviy hayotining qiyosiy tahlili 593

T.Y.Bakirov, S.A.Soxibov

Korruksiyaviy munosabatlarni oldini olishning falsafiy-analitik tahlilining ta'limi jihatlari 597

S.S.Evatov

Kalom ilmining vujudga kelishi va uni islomdagi aqidaviy masalalarni o'rganishdaga o'mi 602

I.Y.Toirov

Sivilizatsiya masalalarining nazariy - metodologik jihatlarini o'rganish muammolari 606

A.M.Rasulov

Axborot va axborot makoni tushunchasi, ularning falsafiy tahlili 610

A.A.Sayitxonov

Jamiyat va shaxs rivojida qadriyatlarning o'mi 614

F.A.Yuldashev

Socio-philosophical analysis of categories of needs and interests 618

S.P.Tojiboyev

Boshqaruv kadrlarining axloqiy madaniyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili 625

B.X.Mirzraximov, B.T.Shokirov

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonari 631

M.A.Abduxamidov

Sovetlarning O'zbekistondagi masjidlarga munosabatining tahlili 635

SIYOSAT**J.A.Dadaboyeva**

Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari 638

A.A.Ganiyev

Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jalik kooperativlari faoliyati 643

TARIX**B.A.Usmonov**

"Sohibqiron" atamasining kelib chiqishi va ma'nosiga oid fikrlarga bir 648



BOSHQARUV KADRLARI FAOLIYATIDA MA'NAVIYATNING O'RNI

РОЛЬ ДУХОВНОСТИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ПЕРСОНАЛА

THE ROLE OF SPIRITUALITY IN THE ACTIVITIES OF MANAGEMENT PERSONNEL

Arzimatova Inoyatxon Madimarovna

Farg'onan davlat universiteti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

Maqolada axloqan barkamol, bilimli va tajribali, ilm asoslarini chuqur egallagan, adolatparvarlik, insonparvarlik etiqodi kuchli rahbar shaxslar yuksak ma'naviy fazilatlari o'rganilgan. Bu fazilatlarning barchasi birlashtirish, jamiyatning dunyoqarashi, etiqod, xalqning milliy ongi shakllanishiga, mustahkamlanib, rivojlanishiga olib keladi. Ma'naviy kamolot, uning barcha qirralari o'zaro bog'liqligi, bir-biriga bevosita yoki bilvosita ta'sir etib turishi asosida davom etadi. Inson jumidan, rahbar shaxs kamolotini ma'naviyatning yuqoridaq tomonlaridan birortasisiz to'liq tasavvur etish mumkin emas. Uning mohiyati ham shu sifatlarning mushtarak birligi asosida shakllanadi va kamol topib boradi. Ma'naviy kamolot jamiyat taraqqiyotining inson faoliyati, ongi bilan bog'liq bo'lgan sub'ektiv omillari tobora kengayib, chuqurlashib, rivojlanib borishini bildiradi. Iltimoiy-falsafiy fikrlar tarixida ma'naviyilik yaxshilik va mehribonlik, ulug'vorlik va ko'rkarlik, pokdomonlik va ma'nifatilik, tabiatga insoniy munosabat kabi juda ko'p ezgu tushunchalarni ifodalab kelgan. Insonning o'zligini anglashga intilishi uning kamolotining botiniy asosidir. Rahbar kadrlarning axloqiy-estetik madaniyati ularning hissiy va intellektual qobiliyatlar, mukammal hayot to'g'risidagi tasavvurlari va, nihoyat, nafaqat tabiiy zaruriyat, balki go'zallik qonunlari asosida yaratilgan real narsa-hodisalar hamda xulq-atvor shakllarini o'z ichiga olgan murakkab tizimdir.

Аннотация

В статье рассматриваются высокие моральные качества лидеров, морально устойчивых, знающих и опытных, обладающих глубокими познаниями в основах науки, твердо верящих в справедливость и человечность. Все эти качества объединяются и приводят к формированию, укреплению и развитию мировоззрения общества, веры, национального сознания народа. Духовная зрелость протекает на основе того, что все ее стороны взаимосвязаны, прямо или косвенно влияя друг на друга. Совершенство человека, в том числе лидера, невозможно в полной мере представить без какого-либо из вышеперечисленных аспектов духовности. Его сущность формируется и зреет на основе общего единства этих качеств. Духовная зрелость означает, что субъективные факторы развития общества, связанные с деятельностью и сознанием человека, расширяются, углубляются и развиваются. В истории общественно-философской мысли духовность выразила множество благородных понятий, таких как добро и доброта, великолепие и красота, целомудрие и просвещенность, отношение человека к природе. Желание человека реализовать свою личность является внутренней основой его совершенства. Этическо-эстетическая культура руководящего состава представляет собой сложную систему, включающую в себя его эмоциональные и интеллектуальные способности, представления о совершенной жизни и, наконец, реальные вещи-феномены и формы поведения, созданные на основе не только естественной необходимости, но и законы красоты.

Abstract

The article discusses the high moral qualities of leaders who are morally stable, knowledgeable and experienced, who have deep knowledge of the basics of science, and who firmly believe in justice and humanity. All these qualities combine and lead to the formation, strengthening and development of society's worldview, faith, and national consciousness of the people. Spiritual maturity proceeds on the basis that all its aspects are interconnected, directly or indirectly influencing each other. The perfection of a person, including a leader, cannot be fully imagined without any of the above aspects of spirituality. Its essence is formed and matures on the basis of the general unity of these qualities. Spiritual maturity means that subjective factors in the development of society associated with human activity and consciousness expand, deepen and develop. In the history of social and philosophical thought, spirituality has expressed many noble concepts, such as goodness and kindness, splendor and beauty, chastity and enlightenment, and the relationship of man to nature. A person's desire to realize his personality is the internal basis of his perfection. The ethical and aesthetic culture of the management team is a complex system that includes its emotional and intellectual abilities, ideas about a perfect life and, finally, real things-phenomena and forms of behavior created on the basis of not only natural necessity, but also the laws of beauty.

Kalit so'zlar: бошқарув кадрлари, маънавият, баркамол, билимли ва тажрибали, юксак маънавий фазилатлар, маънаевий камолот, раҳбар шахслар маънавияти

Ключевые слова: управленический персонал, духовность, компетентные, образованные и опытные, высокие моральные качества, духовная зрелость, духовность лидеров.

Keywords: Key words: management personnel, spirituality, competent, educated and experienced, high moral qualities, spiritual maturity, spirituality of leaders.

KIRISH

Boshqaruv kadrlari faoliyatida axloqiy va estetik madaniyatilik muhim sifatlardan biri hisoblanadi. Axloqan barkamol, bilimli va tajribali, ilm asoslarini chuqr egallagan, adolatparvarlik, insonparvarlik e'tiqodi kuchli rahbar shaxslar yuksak ma'naviy fazilatlarning sohibi bo'la oladilar. Bu fazilatlarning barchasi birgalashib, jamiyatning dunyoqarashi, e'tiqodi, xalqning milliy ongi shakllanishiga, mustahkamlanib, rivojlanishiga olib keladi. "Rahbar ma'naviy shakllangani boshqaruvning adolatl, xolis, ochiq, mas'uliyatli, ishbilarmonlik, to'g'ri va tezkor qarorlar qabul qilishga, insonlarni maqsad sari birlashtirish va harakatlantirish mahoratiga, bugungi davr siyosiy islohotlarini amalga oshirishga har tomonlama tayyorligi, tajriba va liderlik ko'nikmalariga egaligi bilan baholanadi [1, Yangi O'zbekiston gazetasi. 2023 yil 22 fevral, 36-son].

Ma'naviy kamolot, uning barcha qirralari o'zaro bog'liqligi, bir-biriga bevosita yoki bilvosita ta'sir etib turishi asosida davom etadi. Inson, jumladan, rahbar shaxs kamolotini ma'naviyatning yuqoridaq tomonlardan birortasisiz to'liq tasavvur etish mumkin emas. Uning mohiyati ham shu sifatlarning mushtarak birligi asosida shakllanadi va kamol topib boradi. Ma'naviy kamolot jamiyat taraqqiyotining inson faoliyati, ongi bilan bog'liq bolgan sub'ektiv omillari tobora kengayib, chuqurlashib, rivojlanib borishini bildiradi.

Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida qaror topib borayotgan yangi ma'naviy ruh rahbar shaxslar ma'naviyati g'oyasini ham kun tartibiga qo'ydi. Rahbar shaxs ma'naviyati qanday bo'lishi kerak? Uning asosini qanday g'oyalari tashkil qiladi? Fikrimizcha, rahbar shaxs ma'naviyatida, avvalo, mas'uliyat hissi yuksak bo'lishi lozim. Bu hisni nimalar tashkil qiladi? Uni "inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlarini oliy qadriyat" deb bilish tashkil qiladi. Shu ma'noda rahbar shaxs ma'naviyati g'oyasining birinchi elementi insonni qadlashdir. Bu ulkan mas'uliyat hissini paydo qiladi. "Sir emas, bugun ayrim rahbarlarimizning ma'naviy dunyosi tarbiyaga muhtoj. Ba'zi rahbarlar fuqarolarga, qo'l ostidagi xodimlarga, jamoatchilikka nisbatan qo'pol muomalada bo'layotir. Bu ham barchamizni birdek o'ylantirmoqda" [2, Yangi O'zbekiston gazetasi. 2023 yil 22 fevral, 36-son].

ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METODOLOGIYA

"Bugungi kunda boshqaruv kadrlari faoliyatida axloqiy va estetik madaniyatilik muhim sifatlardan biri hisoblanadi. Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida qaror topib borayotgan yangi ma'naviy ruh rahbar shaxslar ma'naviyati g'oyasini ham kun tartibiga qo'ydi. Shu jumladan, "ma'naviyat", "ma'naviyilik" tushunchalari eng ko'p tahlil va talqin qilinayotgan fenomendir" [1, 2, 3]. "Ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida ma'naviyilik yaxshilik va mehribonlik, ulug'vorlik va ko'rksamlik, pokdomonlik va ma'rifatlilik, tabiatga insoniy munosabat kabi juda ko'p ezgu tushunchalarni ifodalab kelgan" [4, 5, 6, 7]. Ma'naviyat o'ta murakkab va serqirrali bo'lganligi bois unga berilgan ta'riflar ham, yondashuvlar ham rang-barangdir [11, 12].

NATIJA VA MUHOKAMA

Hozirgi davrda ilmiy tadqiqotlarda "ma'naviyat", "ma'naviyilik" tu-shunchalari eng ko'p tahlil va talqin qilinayotgan fenomendir. Zero, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "umuman, o'zida juda chuqr va keng qamrovli ma'no-mazmunni mujassam etgan bu tushunchaga har qaysi ma'rifatli inson o'zining falsafiy yondashuvi, siyosiy qarashlari va e'tiqodi, ongu tafakkuridan kelib chiqqan holda turlicha ta'rif va tavsiflar berishi tabiiy" [3, 18-19] dir. Zero, niyoyatda keng tushuncha bo'lgan ma'naviyilik inso-niyilikni qaror toptiradi.

Shaxsda ma'naviyilik asosini uning iyomon-e'tiqodi tashkil etadi. Iyomon-e'tiqod inson ma'naviy kamolotining mahsuli va ayni paytda uni shakllantiruvchi omil hamdir. Inson o'zining yaratuvchan qobiliyati, kuch va imkoniyatlarga sidqidildan ishonsa, o'z kasb-kori (fan, san'at, siyosat, din va boshqalar)ga e'tiqod qo'ysa, jiddiy yutuqlarga erishishi va shaxs si-fatida kamol topishi mumkin. Binobarin, haqiqiy shaxs mustahkam iyomon-e'tiqod, insoniy fazilat sohibi, go'zallik qonunlari asosida olamni qayta yaratuvchi insondir.

Ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida ma'naviyilik yaxshilik va mehribonlik, ulug'vorlik va ko'rksamlik, pokdomonlik va ma'rifatlilik, tabiatga insoniy munosabat kabi juda ko'p ezgu tushunchalarni ifodalab kelgan. Insonning o'zligini anglashga intilishi uning kamolotining botiniy asosidir. Modomiki, shunday ekan, insoniyat tarixini ayni ma'naviy komillikkha intilish tarixi, deb baholash mumkin.

FALSAFA

"Bu an'anaviy va zamonaviy muammo hozirgi zamon yaqin va uzoq xorijlik olimlarning asarlarida turlicha talqin qilib kelinadi. Rus dinshunos faylasufi N.A.Berdyaev fikricha, ma'naviyilik turli daraja va sifat muayyanliklari bilan insонning axloqiy, badiiy-estetik, bilish faoliyatini aks ettiradi" [4, 48]. Boshqa faylasuf A.N.Ilin shunday yozadi: "har bir insonda g'ayrishuuriy kuchlar va ruh quvvatlardan iborat o'zaro ters qutblar mavjud. Tabiiy mayl-instinkt o'z-o'zicha va ruh orgali jilovlanmasa, insondagi vahshiyligini yuzaga chiqaradi, oqibatda inson o'zining bo'ridek ayyorligi, makkorligi, shafqatsizligini namoyon qiladi. Bunday quruq mayllarga berilgan inson na e'tiqodni, na iymonni, na rahm-shafqatni, na sharm-hayoni tan oladi; halollik ustidan kuladi, ezgulikdan nafratlanadi, e'tiqodning hech bir tamoyiliga ishonmaydi, uning uchun faqat foyda keltiruvchi narsa ezgulik, munosib, go'zal. Modomiki, shunday ekan, faqat inson ruhiyati, botiniy ma'naviyati, oqilona idroki, mas'uliysi va iymoni bu hayvoniyi instinctga qarshi tura olishi mumkin" [5, 31].

Shunday qilib, tadqiqotchi I.A.Ilin fikricha, insoniy ruhiyat har bir masalani erkin tanlash, hal qilish, mustaqil harakatlanish salohiyatiga ega faol, jonli kuch-qudrat asosidir. Ayni paytda insonga xos "iroda erkinligi" ham narsa-hodisaga mustaqil munosabat bildiradi, o'zligini ko'rsatish va botiniy qarama-qarshiliklarini bartaraf etishga qodir bo'ladi. Insonning ruhiyati har qanday emas, balki faqat shaxsga xos oqilona botiniy kuchdir. Aytish mumkinki, ma'naviyilik faqat ong, faqat tafakkur mahsuli emas, so'z va mulohazalar bilan cheklanmaydi. Insondagi ma'naviyilik bularning barchasidan chuqr, teran, ulkan, boy va ayni paytda ilohiy. A.Ilin ta'kidlashicha, har qanday davlat milliy o'zligini ta'minlash, fuqarolari huquqiy ongini himoyalash, burch hissini shakllantirishda ijobjiy ma'nodagi vatanparvarlik instinctiga suyanishi lozim.

L.P.Bueva ma'naviylikdagi asosiy narsa bilimlarni egallahdan ibo-rat emas, balki ularning ma'nosи va maqsadini e'tiqodga aylantirishdir, degan muhim fikrni ilgari suradi. Ma'naviyilik qadriyatlarning muayyan darajasi, maqsadning ifodaviy ko'rsatkichi, gnoseologik jihatdan olamni olyi darajada o'zlashtirish demakdir. Ishonch, umid, muhabbat ma'naviy-likning insonparvarlik, gumanistik ma'nolarini anglatadi. "L.P.Bueva fikricha, ma'naviyilik madaniy-antropologik ma'noda dunyoviy va diniy yo'nalishlarga ega bo'lib, ularning o'zaro aloqadorligi inson kamolotini ta'min etadi. Sir emaski, ma'naviyilik faqat din, ruhoniyatga aynan teng emas, albatta. Aks holda fan-texnika rivojlanayotgan hozirgi sharoitda in-soniyatning dunyoviy qadriyatlar bilan qurollangan muayyan qismini ma'na-viy taraqqiyotdan chetda qoldirish, "ma'naviylik" tushunchasini mazmunan toraytirish va kambag'allashtrishga yo'l qo'yilgan bo'lurdi" [6, 45].

Bu o'rinda V.S.Barulihning ma'naviylikni ijtimoiy-falsafiy an-tropologik muammolarga bog'lab tushuntirishi e'tiborga loyiqdirdir. Uning tavsificha, ma'naviylik insonning yetakchi va asosiy fazilati, sub'ektiv olami, o'z-o'zini bilish shakli, idealligi, ijtimoiy tajriba va ijodiy yuk-sakligi, ichki da'vati, mentaliteti va mohiyatidir. Shunga asoslanib, ma'naviylik tarkibini insonning intellektual-fikriy, hissiy-emotsional va irodaviy faoliyati, qobiliyati, boshqacha aytganda, ruhiy, axloqiy-estetik va diniy e'tiqod hamda kechinmalar, fan, san'atdan iboratligini ko'rsatadi [7, 460]. Bu, albatta, ma'naviylikning keng tavsifiy ifodasi.

O'zbek faylasuf olimlarining ma'naviyatga oid qarashlari ham rang-barang bo'lib, ularda bu tushunchaning yaxlit mazmuni va tarkibini talqin qilishga e'tibor qaratiladi. "Ma'naviyat – insonning ma'lum darajadagi jismoniy, aqliy, axloqiy va ruhiy balog'ati va dunyoqarashini ifodalaydigan tushunchadir, - deb yozadi T.Mahmudov" [8, 9]. "Bu tavsifiy baho ma'naviyatni yaxlit va bir butun ijtimoiy hodisa sifatida ifoda etishi bilan muhimdir. Professor Ibrohim Karimov ma'naviyatni "imon" tushunchasiga bog'lab tushuntiradi" [9, 37]. A.Erkaev talqini bo'yicha "ma'naviyat-insonning madaniy mavjudot sifatidagi mohiyati, ya'ni uning mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik majmuidir" [10, 27].

Ma'naviyat o'ta murakkab va serqirrali bo'lganligi bois unga berilgan ta'riflar ham, yondashuvlar ham rang-barangdir: ma'naviyat-shaxsiy ong; kishilarning ruhiy faoliyati; axloq, nafosat va nazariy qadriyatlar yig'indisi; haqiqat va himmat hamda go'zallikning qicmi; insonning histuyg'ulari; insonning jamiki axloqiy qadriyatları yig'indisi va h.k. Shuning uchun ma'naviyat umuman bepoyon, cheksiz borliqning inson ruhida aks etishini bildiradi.

"Ilmiy adabiyotlarda ma'naviylikning tarkibi haqida turli fikrlar bildiriladi. Bizga ma'lum tadqiqotlarda ularning tarkibiy qismi uchdan beshtagacha belgilanadi va turli ibora ostida beriladi" [11, 71]. Chunonchi, A. Sher ma'naviylikning shohtomirini uchta, ya'ni "ezgulik, go'zallik; e'tiqod, ya'ni ana shu ezgulik va go'zallikning tom ma'nodagi timsoli bo'lmish Yaratganga e'tiqod" [12, 132]

tashkil qiladi, deb yozadi. Rossiyalik olim V.N.Sherdakov fikricha, "ma'naviylik gnoseologik (ilmiy bilish va falsafa); axloqiy (axloq); estetik (san'at) kabi qatlamlardan tashkil topgan, shunga ko'ra, ma'naviylik uch qadriyat, ya'ni haqiqat, ezzulik, go'zallikning mohiyatini anglatadi. Ma'naviy hayotni tashkil qiluvchi bu yaxlit "uchlik" - fan, din, san'atdan iboratdir, biroq ma'naviylik asosining negizini axloq tashkil etadi" [13, 27-29].

Bizningcha, shaxs estetik kamolotining tarkibiy qismlari to'g'risida so'z borganda, A.Sher, V.N.Sherdakovning yuqorida fikrlariga asoslanish to'g'ri bo'ladi. "Darhaqiqat, muammoga doir konsepsiya va qarashlarni umum-lashtirib, biz ma'naviylik tarkibida axloqiylik ustuvorligi, estetik fazilatlar ikkinchi pog'ona, intellektual va ekologik qismlar navbatdagi qatlamni tashkil etishini ta'kidlashni lozim topamiz. "Lekin ma'naviyat yuqoridaqlarning mexanik yig'indisidan iborat emasligi o'z-o'zidan ayon. Tadqiqotchi Z. Sobirova ta'kidlaganidek, sof axloqiy, sof estetik, sof in-tellektual, sof ekologik ma'noda olinganda ulardan hech biri alohida hol-da ma'naviylik mohiyatini to'la ifodalay olmaydi" [14, 43]. Shunday qilib, ma'naviylik insonning yuksak axloqiy, estetik, aqliy, ruhiy, jismoniy barkamolligini anglatuvchi umumiy tushunchadir. Demak, shaxs ma'naviyligi tarkibida estetik barkamollikning o'z o'mi bordir.

Milliy axloqiy-estetik madaniyatning rivojlanib borishi jarayonida ajdodlarimizning ming yillar davomida kamol topib kelgan va o'zining qadr-qimmatini yuksak ma'naviyat namunalariga aylantirgan milliy xususiyatlar muhim ahamiyatga ega. Zero, xalqimizning axloqiy-estetik madaniyatini birinchi navbatda, milliy tilimiz, dinimiz, rivoyat va afsonalarimiz, badiiy-estetik yodgorliklarimiz ifodalab kelgan. Tilimiz va dinimizning rivojlanishiga turli xil tazyiqlar o'tkazilib, milliy g'ururimiz, sha'nimiz, turli marosim va an'analarimizga eskilik sargiti sifatida qaralib, ajdodlarimizning bebafo asarlari va noyob meroslari toptalib, ularning aksariyatini millatchilik va xalq dushmani sifatida ayblansa-da, ular xalqimiz tomonidan e'zozlanib, saqlanib kelindi. Bizning xalqimiz azaldan sharqona jamoaviylik ruhi bilan uzviy ravishda rivojlanib kelgan va mana shu jamoaviylik negizida tarixan tarkib topgan axloqiy-estetik madaniyatning o'zagini ko'rishimiz mumkin. Ular xalqimizning bir-birlariga nisbatan mehr-oqibat, o'zaro hurmat, mehmondo'stlik, kattaga hurmat-kichikka izzat, mehr-shafqat, insoniylik kabi fazilatlarida va bir-birlariga beg'araz yordam qo'lini cho'zishlarida aks etgan. Xalqimizning yuksak axloqiy-estetik madaniyatining namunasi bu shaxsning jamiyat bilan o'zaro aloqasida, ya'ni qariyalarga mehr-muruvvat, boquvchisini yo'qtog'nlarga beg'araz yordam berish, kam ta'minlangan insonlarga, nogironlarga, yetim-yesirlarga yordam qo'lini cho'zish kabilar bilan ifodalanadi. Xalqimizga xos axloqiy-estetik madaniyat, jismoniy va intellektual salohiyatlar millatning tarixiy va ma'naviy merosi sifatida qaror topgan. Shu bilan birga, uzoq va yaqin o'tmishdan meros bo'lib keladigan eskicha odat, ko'nikma, malakalardan qutulmay turib ham yangi ijtimoiy tuzum g'oyalarini ro'yobga chiqarish yo'lida ijtimoiy hayotda tub o'zgarishlar qilish qiyin kechadi.

Fikrimizcha, rahbar shaxs o'z faoliyatida adolat tamoyillariga rioya qilmas ekan, uning ishlari talab darajasida bo'lmaydi. Rahbar shaxsning adolati mulkka, o'zgalar haqqiga va jamiyat manfaatlariga nisbatan odil munosabatda bo'lismda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, rahbar shaxs ma'naviyati g'oyasining asosiy elementlari quydagilardir:

Birinchidan, rahbar shaxs ma'naviyatining asosiy g'oyasi inson qadridir. Butun faoliyat inson qadrini ta'minlash asosiga quriladi.

Ikkinchidan, rahbar shaxs ma'naviyatining navbatdagi g'oyasi inson huquqlari va uni ro'yobga chiqarishdan iborat.

Uchinchidan, rahbar shaxs ma'naviyatining g'oyalaridan birini siyosiy onglilik va erkinlik tashkil qiladi. Bunda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohaga doir davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga asoslanadi.

To'rtinchidan, rahbar shaxs ma'naviyatining asosiy g'oyalaridan biri adolatlilikdir. Bu mulkka va vatan istiqboliga nisbatan mo'tadil munosabatda bo'lish natijasida shakllanadi.

Davlat xizmatchilari tafakkurini yangilash ikki tomonlama jarayondir. U bir tomonidan, yangi, zamonaviy davlat xizmatchilariga xos fazilatlarning maxsus, ilmiy asosda shakllantira borishini talab qilsa, ikkinchi tomonidan, hamon ba'zan o'z ta'sirini ko'rsatayotgan, sobiq sho'ro kadrlar siyosatida "sinalgan" korporativ-byurokratik psixologiyani siqib chiqarish talab qilinadi. Bu ikki jarayonni parallel olib borish zarur. Aks holda yangi, sog'lom tafakkur eski, "sinalgan" tafakkurga "urilib", chekinishi mumkin. Masalan, davlat manfaatini o'z manfaatidek ko'rish – davlat xizmatchisi faoliyatining yetakchi tamoyili e'tirof etilsa-yu, boshqaruvida uchrab turgan korrupsiya, poraxo'rlik, ma'muriy buyruqbozlik, mahalliychilikka qarshi kurashilmasa ana shunday holat ro'y berishi mumkin.

FALSAFA

Ma'lumki, shaxsiy manfaatlar, nafs ustuvorligiga qurilgan birlashuv, uyushish kuchli bo'ldi. Chunki shaxsiy manfaat ustuvorligi davlat organlariga suqilib kirib olgan xudbin, yulg'ich, ustamon, laganbardor, iqtidorsiz shaxslarni birlashtiradi. Sobiq sho'ro tizimida bu birlikning tamoyili - shaxsiy sadoqat, "men sizga, siz menga, davlatni esa qo'ya turing" tarzida namoyon bo'lib keldi. Shaxs - davlatdan, davlat - shaxsdan, shaxs - o'z mehnati mevalaridan uzoqlashdi, begonalashdi. Shu sababli murosasiz tanqid ostiga olingan shaxsiy, guruhiy, mahalliy, qon-qarindoshchilik manfaatlarini davlat manfaatidan ustun qo'yish kabi sobiq sho'ro tizimidan qolgan zararli meros ba'zi hollarda hamon o'zini eslatib turibdi.

Shaxsiy manfaatdorlik tamoyiliga qurilgan bu hodisalar o'ta yashovchan. Masalan, eski sho'ro davridagi "qo'shib yozish" hodisasini olaylik. Qo'shib yozish qo'shib yozuvchilarga nafaqat jinoiy daromad, balki mukofot, soxta obro' ham keltirar edi. Boshqaruv organlari nazoratining sustligi ma'muriy byurokratiyaning, rasmiyatchilik, odamlarning tashvish-muammolariga befarqlik, poraxo'rlikning "gullab-yashnashi"ga sharoit yaratish edi. Bundan na davlat, na millat yutar, balki shaxsiy manfaatdorlik asosida uyushgan guruhlar yutar, tantana qilar edi.

Shunday ekan, rahbar kadrlarning axloqiy-estetik madaniyati ularning hissiy va intellektual qobiliyatları, mukammal hayot to'g'risidagi tasavvurlari va, nihoyat, nafaqat tabiiy zaruriyat, balki go'zallik qonunlari asosida yaratilgan real narsa-hodisalar hamda xulq-atvor shakllarini o'z ichiga olgan murakkab tizimdir.

XULOSA

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda kishilarning moddiy va ma'nnaviy ehtiyojlarini yanada to'laqonli qondirish sohasida yuzaga kelayotgan shart-sharoitlarning o'rni kattadir. Jamiyat iqtisodiyotining rivojlanishi, ma'nnaviyatga asoslangan ijtimoiy munosabatlар va turmush tarzining barqarorlashuvi asosida xalqimizning ma'nnaviy madaniyati ri-vojlanib bormoqda. Kishilarning estetik kamoloti bozorning ob'ektiv ijtimoiy munosabatlari, ularning ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sir etishlariga ko'p jihatdan bog'liqidir.

Rahbar kadrlarning axloqiy-estetik kamolotini tarbiyalashda uning ijtimoiy qiyofasini shakllantiradigan, insoniylik mohiyatini belgilaydigan omillar uyg'unligi, avvalambor, uning ma'nnaviy qiyofasida gavdalananadi. Shaxs kamolotining tarkibiy qismlari o'zaro aloqadorlik, yaxlitlik, bir butunlik orqali yuz ko'rsatadi, inson omili orqali ijtimoiy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatadi. Axloqiy-estetik madaniyat murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, uni tahlil etish nafaqat umumfalsafiy, shu bilan birga, madaniyat falsafasi konsepsiyasiga ham asoslanadi. Axloqiy-estetik madaniyat narsa-hodisalarning insoniylik mohiyati, shakl mukammalligi, shuningdek, tartib, moddiy-amaliy maqsad-manfaatlarga beg'araz, xolis munosabat me'yorlarini aks ettiruvchi yuksak insoniy hissiyotlarni o'z ichiga oladi. Axloqiy-estetik madaniyat insonning hissiy va intellektual qibiliyatları, uning mukammal hayot to'g'risidagi tasavvurlari va, nihoyat, nafaqat tabiiy zaruriyat, balki go'zallik qonunlari asosida yaratilgan real narsa-hodisalar hamda xulq-atvor shakllaridan tashkil topgan murakkab tuzilmadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Yangi O'zbekistonda demokratik jamiyat va rahbar mas'uliysi". Yangi O'zbekiston gazetasi. 2023 yil 22 fevral, 36-son.
2. "Yangi O'zbekistonda demokratik jamiyat va rahbar mas'uliysi". Yangi O'zbekiston gazetasi. 2023 yil 22 fevral, 36-son.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'nnaviyat-yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'nnaviyat, 2008, 176.
4. Бердяев Н.А. Философия свободного духа. – М.: 1994, 479.
5. Ильин И. А. О грядущей России. Избранные статьи. – М.: 1993, 368.
6. Буева Л.П. Духовность и проблемы духовной культуры. //Вопросы философии. - 1996. - № 2. 177.
7. Барулин В.С. Социальная философия. – М.: Гранд. 1999, 460.
8. Mahmudov T. Mustaqillik va ma'nnaviyat. – Toshkent: Sharq. 2001, 160.
9. Karimov Ibrohim. Ma'nnaviyat, falsafa va hayot. – Toshkent: Fan. 2007, 292.
10. Erkaev A. Ma'nnaviyat-millat nishoni. – Toshkent: Ma'nnaviyat. 1997, 39.
11. Imomnazarov M. Milliy ma'nnaviyatimiz nazariyasiga chizgilar. – Toshkent: Sharq, 1998. Erkaev A. Ma'nnaviyat-millat nishoni.-Toshkent: Ma'nnaviyat, 1997. Ziyomuhamedov B. Komillikkha eltuvchi kitob.-Toshkent: TURON-IGBOL, 2006.
12. Sher A. Axloqshunoslik. Ma'ruzalar matni. – Toshkent: 2000. - 132 b.
13. Шердаков В.Н. О познавательном, нравственном и эстетическом отношении человека к действительности //Вопросы философии. 1996. № 2.
14. Sobirova Z. Jamiyat yangilanishi va badily-estetik omillar. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2007.